

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10897135>

SURXONDARYO VILOYATI VA QUMQO‘RG‘ON TUMANI TABIATINING EKOTURISTIK VA IQTISODIY RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Lolayev Abror Almirza o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Universiteti Geografiya va geoaxbarot tizimlari fakulteti
Geografiya (o‘rganish ob‘yekti bo‘yicha) mutaxassisligi
Tabiiy geografiya kafedrası
2-bosqich magistri
Email: lolayevabror19@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yurtimiz janub gavhari atalmish ko‘hna Surxon vohasi va unda joylashgan Qumqo‘rg‘on tuman tabiati va uning ekoturistik, iqtisodiy rivojlatirish imkoniyatlari, shuningdek kelajakda turistik ahamiyatga ega hududlar salohiyati va bu hududlarda bajarish kerak bo‘lgan ishlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Ekoturistik, yalpi milliy mahsulot, Turizm, rekratsion landshaft, iqlim, flora, fauna, muhofaza qilinadigan hududlar, tuproq va o‘simlik qoplami, litologik-geomorfologik.

Dunyo xo‘jaligi tarkibida eng jadal sur‘atlarda rivojlanib borayotgan iqtisodiyot sohalaridan biri turizm hisoblanadi. Turizm industriyasi ko‘pgina mamlakatlarning iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. Uning hissasiga jahon yalpi milliy mahsulotning 10%, jahon iste‘mol sarfining 11% to‘g‘ri keladi. Tabiiy komplekslarni ekoturizm nuqtai-nazardan baholanganda ularning ekoturistik imkoniyatlarini baholab beradigan hamma xususiyatlarini inobatga olish talab etiladi. Bu xususiyatlar quyidagi omillar asosida shakllanadi.

Ular litologik-geomorfologik, iqlim, suv rejimi, tuproq va o‘simlik qoplami, hayvonot dunyosidir. Ular birgalikda u yoki bu qulayligini aniqlash imkonini beradi. Ekoturizmning tabiiy omillarga relyef, iqlim, yerusti va yerosti, tuproq va o‘simlik qoplami hamda hayvonot dunyosini kiritish mumkin. Ekoturizm uchun qulay shart-sharoitlarni belgilab beradigan asosiy omillaridan biri relyef bo‘lib, unga ta‘rif berilganda joyning dengiz sathidan mutlaq va nisbiy balandligiga, o‘ydim-chuqurligiga, plastikasiga, parchalanganida, yonbag‘irlarning turiga, uning e‘tiborini qaratish lozim.

Xududning ekoturistik imkoniyatlarini aniqlashda va baholashda iqlimiy sharoit

muhim o‘rin tutadi. Iqlim inson faoliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatib, ko‘p hollarda hududlarda dam olish va sayohatni chegaralaydi. Yer usti suvlari ham ekoturizm uchun geoeologik muhitni yaratadigan omillardan biridir. Ularning mavjudligi tabiiy muhitning ekoturistik va rekratsion qiymatini oshiradi. Tuproq qatlamini ekoturizm nuqtai-nazardan tahlil qilganda uning xususiyatlariga, sanitargigiyenik xolatiga, tabiiy holatining salbiy jarayonlar ta‘sirida buzilishi darajasiga etibor qaratiladi.

O‘simliklar olami ham ekoturizmda alohida o‘rin egallaydi. O‘simlik qoplami kislorod bilan ta‘minlovchi, asosiy sog‘lomlashtiruvchi va rekratsion omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazaridan qaraganda, Surxon vohasida ham ekologik turizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjud bo‘lib,

Ular:

- rekra-tabiiy landshaftlarning mavjudligi,
- rekratsionsion resurslariga boyligi,
- turli xildagi flora va fauna dunyosi,
- tabiiy va tarixiy yodgorliklar ko‘pligi,

-alohida muhofaza qilinadigan hududlarning mavjudligidir. Voha tabiiy sharoiti, relyefi, iqlimi va suvlari asosida shakllangan resurslardan davolanish, sog‘likni tiklash, dam olish maqsadlarida foydalanish mumkin. Odatda Surxon zamini haqida gap ketgudek bo‘lsa, darhol ko‘z o‘ngimizda janub quyoshi taftidan quvvat olgan, mard va tanti, fidoiy, yurt-millat rivoji uchun ter to‘kib mehnat qilayotgan insonlarning qiyofalari gavdalanadi.

Ayniqsa, tabarruk zamini va yuzlab allomalarning beshigini tebratgan tabiati, ming yillardan buyon yuksaklik ramziga aylangan purviqor tog‘lari, shifobaxsh suvlari, aziz ziyoratgohlari har bir mehmonning e‘tiborini tortishiga shubha yo‘q. Bir vaqtning o‘zida yilning to‘rt faslini kuzatish mumkin bo‘lgan joy haqida eshitganmisiz?!

Zarrin quyosh nurlari ostida jimjimador yomg‘ir yog‘ishini-chi? Qattiq shamol aralash naqd jala quyib turgan paytda bobo quyosh samoda jilmayib turishini-chi?! Sangardak sharsharasi – Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani markazidan qariyb 55 kilometr uzoqlikda, tog‘lar orasidagi Sangardak qishlog‘ida joylashgan. Sharshara yer sathidan 120 metr balandlikdagi tog‘ qoyasidan otilib tushadi. Uning suvi yoz faslida ko‘payadi, kuzda esa kamaya boshlaydi.

Mahalliy aholining aytishicha, uning zilol suvi baland tog‘lardagi muzliklarning erishidan hosil bo‘ladi. O‘ziga xos ajib tabiati, mayin esuvchi salqin shabadasi bu joyni kishilarning sevimli ziyorat maskaniga aylantirgan. Sharsharaning zilol suvidan bahramand bo‘lish, oftob deyarli tushmaydigan xushhavo manzarani tomosha qilish insonga huzurbaxsh etadi.

Vohaning yana bir ajib g'arayiboti bu Zarautsoy (Zarautkamar). Zarautsoy darasidagi toshlarga ishlangan rasmlar ibtidoiy san'atning nodir namunalaridandir.

Zarautsoy, Sherobod tumanida joylashgan. 1912-yilda I. Fyodorov tomonidan topilgan. 200 dan ortiq rasmlar mezolit, neolit va kiyingi davrlarga mansub. Boysuntog'li yurt hisoblanadi. Boysuntog'lari bag'rida Omonxona bulog'i joylashgan.

Uzoq yillar tarixga ega Omonxona quyuq archazorlar bilan qoplangan. Ushbu manzil geografik muhiti, go'zal manzarasi, bahavoligi bilan inson ruhiyatiga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Omonxona buloq suvi tarkibida kremniy kislotasi, temir, alyuminiy va boshqa ko'plab mikroelementlar mavjudligi aniqlangan. Teshiktosh-O'zbekistondagi arxeologik qo'riqxonidir. Boysuntog' tizmasidagi g'orda joylashgan. G'or Machaydagi Zovtolosh soy darasida dengiz sathidan 1500-1600 metr balandlikda bo'lib, bo'yi 7, eni 20, uzunligi esa 21 metrni tashkil etadi. G'orning shifti teshik bo'lgani uchun gulxan yoqilsa, tepadagi tuynukdan tutun chiqib ketavergan. Dunyo ahlining Teshiktosh g'origa qiziqishi tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, Machaydaryo qishloqlari bo'ylab dara ichidan tekis yo'l o'tkazilishi g'orga borishga qulaylik yaratdi. Bu esa ko'plab mahalliy va xorijiy sayyohlarni bu yerga qiziqishini oshirmoqda. Yana bir muhim tabiat yodgorliklaridan Sayrob qishlog'ida joylashgan umrboqiy chinor daraxti. Umrboqiy daraxt deya e'zozlanib kelinadigan "Chinor bobo" ming yoshga to'lgan. Ushbu qishloqda ana shunday ikki tup ko'hna chinor tanasidagi kattakon kovakdan ilgari askarlar qarorgohi, qishloq kengashi idorasi, kutubxona, maktab, choyxona, sataroshxona sifatida foydalanilgan. Hozir esa uning ichida mo'jazzina muzey tashkil etilgan. Vohadagi yana bir tuman borki, bu makon o'zining g'aroyib tabiati bilan insonlarni o'ziga jalb etadi. Oltinsoy tumanidagi tog'li hududlarda bir qator tog' qishloqlari ana shunday ta'rifga ega. Vahshivor, Bodihavo, Oqsuv, Xo'jaipok shular jumlasidandir. Xo'jaipok qishlog'ida joylashgan shu nomdagi g'ordan oqib chiqadigan shifobaxsh buloq suvi ming dardga davo hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki bu tog' qishloqlarida ijtimoiy va kommunal xizmatlar holatini yaxshilash barobarida kelajakda juda katta turistik obekt resurslari sifatida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Turizmni rivojlantirish voha iqtisodiyoti uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, uning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mazkur soha aholining moddiy farovonligini yaxshilash, ularni ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini mavjud. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Turizmni rivojlantirishda kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyatidan keng foydalanish;

-Internet va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali xorijiy mamlakatlarni viloyatning turistik imkoniyatlari bilan juda yaqindan tanishtirish;

-viloyatning turistik firma vakillari Yevropa va dunyoning turistik mamlakatlarida o'tkaziladigan yarmarkalarda doimiy faol ishtirokini ta'minlash; Ichki turistik bozorda

raqobatni yanada kuchaytirish va boshqa tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki kelajakda Surxon vohasida ham turizm sohasi nafaqat mamlakatimiz miqyosida, balki xalqaro darajada rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yuzaga kelmoqda. Qumqo'rg'on tumanida tog' va tog' oldi hududlari mavjud bulib chorvachilik va cho'l chorvachiligini rivojlantirish uchun ham qulay hisoblanadi. Tabiiy sharoitga moslash oladigan go'sht va sut uchun mo'ljallangan nasldor qoramol va go'sht hamda juni uchun zotdor quylarni parvarishlashmaqaadga muvofiq. Masalan, ko'p yillar davomida go'sht va jun yetishtirishga ixtisoslashgan „Sayxon“ qorako'lchilik fermasi va „Oqqapchig'ay“ sherlar xo'jaligi (oldingi) hozirda fermerlar uyushmasiga aylantirilgan, bu xo'jaliklarda yangi o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yana bir fikrni keltirib utilsa maqsadga muvofiq bo'ladi ya'ni, yaylovlar mahsuldorligini oshirishga alohida etibor berish, yaylovlarda yanada sermahsul o'simliklarni o'stirishga imkon berish kerak. Sababi yaylovlarda tarqalgan o'simliklar, yaylovda chorvachilikdan pala-partish foydalanilishi tufayli vegetatsiya davrida o'sishiga to'la to'kis ulagurmaydi sababi ma'lum hududda joylashgan yaylovda boqilishi mumkin miqdordan ko'ra ko'proq chorva mollari boqilmoqda va natijada bu holatda yaylovlarda foydasiz bo'lgan ikkilamchi o'simliklar o'sishiga sharoit yaratiladi. Bu hol yillar davomida davom etsa albatta biz kelajakda bu sermahsul yaylov hududlardan ajralib qolishimiz hech gap emas.

Tuman tog' oldi va tekislik hududida joylashganligi sababli vegetatsiya davri uzoq davom etadi, agroiqlimiy resurslar bilan juda yaxshi taminlangan hisoblanadi. Bunday holat asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan tumanda ekinlarni joylashtirishda alohida yondashuvni talab etadi, yani mavjud agroiqlimiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni hisobga olgan holda ekin turlari va navlarini tanlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Oxirgi yillarda kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari dehqonchilikda, jumladan tuman uchun muhim bo'lgan paxtachilik va donchillika ta'sirini kamaytirish uchun, ko'p yillar davomida mahalliy xalq tamonidan qo'llanilib kelinayotgan agrotexnik tadbirlardan foydalanish muhim ahamiyatga hisoblanadi. Qumqo'rg'on tumani oziq-ovqat yengil sanoatni rivojlantirish uchun ham qulay imkoniyatlar bor. Mavjud sanoat korxonalaridan tashqari ho'l mevalarni va konserva mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar, ayniqsa zamonaviy mini texnologiyalar bilan jihozlangan kichik biznes sub'ektlari barpo etilsa, aholiga yangi ish o'rinlari, mahalliy byudjetga qushimcha daromad keltirishi aniq. Shu sababdan ularga har tomonlama ko'maklashish, qulay investitsion muhit yaratish, har qanday mamuriy tusiqlarga barham berish bugungi kun dolzarb masalasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. *A.N.Nig‘matov, N.T.Shomurtova O‘zbekiston hududini ekoturistik rayonlashtirish masalalari. Toshkent.2006.*
2. *Roziyev A. Surxondaryo viloyati.- T.: «Jayxun», 1996.*
3. *Ergeshov Sh. Landshafty Surxandarinskoy oblasti.-T.: Fan,1974.*
4. *Ro‘ziyev A.N. Surxon-Sherobod vodiysida qishloq xo‘jaligini joylashtirish va rivojlantirish masalalari.-T.: 2002*
5. *Surxondaryo viloyati siyosiy-ma‘muriy ma‘lumotnomasi kartasi.-T.: “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi. 2016.*
6. *Ярашев Қ.С. Сурхондарё Ботиғи паразгенетик ландшаф комплекслари ва уларнинг геоэкологик районлаштириши Г.ф.н. илм. дар. олиш учун тақдим этган дисс. –Т.:2018, -135 б.*